

QIZILTEPA TUMANINING TURISTIK SALOHİYATIDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI TAHLILI

Turayev Abduvohid Qo‘ldoshevich

Samarqand iqtisodiyot va servis institute, “Raqamli iqtisodiyot” kafedrası assistenti
e-mail: abduvoxidturayev70@gmail.com

Toshmirzayev Sayfiddin To‘lqin o‘g‘li

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti, Iqtisodiyot fakulteti talabasi

Annotatsiya. Maqolada Navoiy viloyati Qiziltepa tumanining turistik salohiyati va undan samarali foydalanish imkoniyatlari kompleks yondashuv asosida tahlil qilingan. Tuman hududining tabiiy-geografik xususiyatlari, tarixiy-madaniy merosi, demografik tarkibi hamda turizm infratuzilmasining hozirgi holati o‘rganilgan. Tadqiqot davomida Qiziltepa tumanida ekoturizm, etnoturizm, gastronomik turizm va qishloq turizmini rivojlantirish uchun mavjud resurslar baholangan. Navoiy viloyati aholisining demografik tarkibi tahlil qilinib, Qiziltepa tumanida 164,6 ming kishi istiqomat qilishi va ularning 69 foizi qishloq aholisi ekanligi aniqlangan. To‘dako‘l suv havzasi atrofida shakllanayotgan turizm zonasi, transport infratuzilmasining rivoji va hududning tranzit imkoniyatlari alohida ko‘rib chiqilgan. Tadqiqot natijalari asosida turizm salohiyatini oshirish, raqamli texnologiyalarni joriy etish, mahalliy aholini jalb qilish va xorijiy investitsiyalarni jalb etish bo‘yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: turizm salohiyati, Qiziltepa tumani, ekoturizm, gastronomik turizm, turizm infratuzilmasi, To‘dako‘l suv havzasi, demografik tahlil, hududiy rivojlanish, turizm xizmatlari, investitsiya, barqaror rivojlanish, madaniy meros, transport logistikasi.

Kirish. Qiziltepa tumani Navoiy viloyatining iqtisodiy va madaniy jihatdan muhim hududlaridan biri bo‘lib, tabiiy-geografik imkoniyatlari, noyob landshaftlari, tarixiy yodgorliklari va milliy an‘analariga asoslangan turistik salohiyatga ega. So‘nggi yillarda mamlakatimizda turizmni iqtisodiyotning strategik tarmoqlaridan biri sifatida rivojlantirish bo‘yicha davlat siyosatining faollashuvi Qiziltepa tumanining mavjud resurslarini chuqur tahlil qilish, hududni turistik hudud sifatida shakllantirish imkoniyatlarini baholashni dolzarb vazifaga aylantirmoqda. Tuman geografik joylashuvi, iqlim sharoiti va transport infratuzilmasining rivojlanib borishi bilan ajralib turadi. Biroq turizm infratuzilmasining yetarli darajada shakllanmaganligi, marketing strategiyalarining sustligi va ichki hamda tashqi turistlar oqimining pastligi mazkur hududning to‘liq turistik salohiyatdan foydalanish jarayonini cheklamoqda. Shu bois Qiziltepa tumanining turistik salohiyatini tizimli

o‘rganish va rivojlantirish strategiyasini ishlab chiqish dolzarb ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Respublikaning turizm salohiyatini jadal rivojlantirish hamda mahalliy va xorijiy turistlar sonini yanada oshirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”¹¹⁸gi qarorida Respublikaning turizm salohiyatidan to‘liq va samarali foydalanish, birinchi navbatda transport-logistika va turizm infratuzilmasidagi muammolarni tezkor hal etish, shuningdek, mavjud resurslar va imkoniyatlardan har tomonlama foydalanish hisobiga turizm sohasida faoliyat yuritayotgan tadbirkorlik subyektlari uchun qo‘shimcha sharoitlar yaratish maqsadlari belgilangan. Xususan, Qiziltepa tumanini turistik zonaga aylantirish hamda turistlar uchun jozibadorligini oshirish maqsadida quyidagilar: Nurota, Qiziltepa va Xatirchi tumanlarining o‘ziga xos etnografiyasini, nomoddiy meros obyektlarini, gastronomik o‘ziga xos xususiyatlarini o‘rganish; Navoiy viloyati Qiziltepa tumanidagi “To‘dako‘l” suv ombori hududida turistik zona tashkil etish; Qiziltepa tumanidagi “Boyazid Bastomiy” ziyoratgohiga olib boruvchi 4R183 “Malik temir yo‘l stansiyasi — Bo‘ston q.” avtomobil yo‘lini joriy ta‘mirlash; amalga oshirish belgilangan.

Adabiyotlar sharhi

Bugungi kunga kelib, turizm biznesi jadal rivojlanmoqda va tog‘li hududlar raqobatda boshqa turistik hududlardan qolishmaydi. Turizm biznesini rivojlantirish uchun ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni samarali boshqarish zarurligi haqida K.Svitlana, K.Bogdan va boshqalar “Management of socio-economic development of tourism enterprises”[2]¹¹⁹ nomli maqolasi Sharqiy Yevropaning tog‘li hududlarida turizm biznesining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga asosiy tahdidlarni aniqlash va baholashdan iborat. Turizm biznesi samaradorligini oshirish sharoitida tog‘larning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini boshqarish bo‘yicha tadqiqotlarning ahamiyati isbotlangan.

Ye.V.Ustyugova va T.O.Popovalarning “Туристский продукт и туристские услуги” nomli maqolasida quyidagicha ta‘riflar berilgan:

“Turistik mahsulot — bu oldindan belgilangan va foydalilikka ega bo‘lgan turistik xizmatlar majmuasi ko‘rinishidagi tovardir. Keng ma’noda turistik mahsulot sifatida istalgan turizm xizmati turi namoyon bo‘lishi mumkin”[3]¹²⁰.

¹¹⁸ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Respublikaning turizm salohiyatini jadal rivojlantirish hamda mahalliy va xorijiy turistlar sonini yanada oshirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori, 26.04.2023 yildagi PQ-135-son <https://lex.uz/docs/-6456786?ONDATE=11.09.2025>

¹¹⁹ Svitlana Kryshanovych, Bogdan Kindzer, Marta Goryn, Alla Kravchenko, Svitlana Frunza Management of socio-economic development of tourism enterprises” <https://www.cceol.com/search/article-detail?id=951205>

¹²⁰ Устюгова Е.В., Попова Т.О.Туристский продукт и туристские услуги «Экономика и бизнес»

“Turistik xizmatlar — bu turizm sanoati korxonalarini tomonidan ko‘rsatiladigan, mijozlar ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan va, odatda, moddiy shaklga ega bo‘lmaydigan ishlab chiqarish faoliyatidir”[3].

C.C.Miralles, M.Broura va boshqalar “Assessing the socio-economic impacts of tourism packages: a methodological proposition”[4]¹²¹ nomli maqolasida turizmning ta’siri faqat iqtisodiy omillar bilan cheklanib qolmaydi; u atrof-muhitga ham, aholiga ham bevosita ta’sir ko‘rsatadi, kabi fikrlarni ilgari surgan.

I.A.Shukurovning “Samarqand viloyati turizm sohasining barqaror iqtisodiy rivojlanishining aholi farovonligiga ta’sirini tahlil etish”[5]¹²² nomli maqolasida Samarqand viloyatida turizm sohasining barqaror iqtisodiy rivojlanishi hamda uning aholi farovonligiga ko‘rsatiladigan ta’siri kompleks yondashuv asosida tahlil qilingan. Turizm iqtisodiyotning yetakchi yo‘nalishlaridan biri sifatida hududiy rivojlanish jarayonlarida muhim funksional o‘rin egallab, mahalliy aholining daromadlari, bandlik ko‘rsatkichlari va ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlik dinamikasiga sezilarli ta’sir ko‘rsatishi yoritib berilgan.

D.A.Ergashevaning “Turizm sohasini rivojlantirishning ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati va unda innovatsion faollikni oshirish xususiyatlari”[6]¹²³ nomli maqolada turizm mamlakatning iqtisodiyoti va ijtimoiy hayotiga to‘liq ta’sir qilishi tahlil qilingan. Olimning fikricha turizm sohasi, ish o‘rinlari yaratish, transport tizimini rivojlantirish, madaniyatni o‘zgartirish va mamlakatlararo aloqalar o‘rtasida hamkorlikni rivojlantirish imkoniyatlarini beradi. Innovatsion faollik turizm sohasini rivojlantirishning kengayishiga olib keladi. Yangi texnologiyalar, marketing usullari, xizmatlar va turli turdagi turli sohalarda innovatsiyalar turizm sohasining rivojlanishida muhim ahamiyatga ega.

Tahlil natijalari

Hozirgi davrda turizm global iqtisodiyotning eng tez sur’atlar bilan kengayib borayotgan hamda yuqori istiqbolga ega tarmoqlaridan biri sifatida e’tirof etilmoqda. Ushbu soha ko‘plab davlatlar uchun yuqori daromad manbai bo‘lib, iqtisodiy o‘sishning muhim harakatlantiruvchi omiliga aylangan. Turistik resurslarga boy O‘zbekiston ham mavjud salohiyatdan oqilona foydalanish orqali iqtisodiy va ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlash

¹²¹ Cristina Casals Miralles, Mercè Boy Roura, Sergio Ponsá Salas, Laia Llenas Argelaguet Joan Colón Jordà “Assessing the socio economic impacts of tourism packages: a methodological proposition” <file:///C:/Users/User/Downloads/s11367-024-02284-z.pdf>

¹²² Shukurov Ikrom Abdurashitovich “Samarqand viloyati turizm sohasining barqaror iqtisodiy rivojlanishining aholi farovonligiga ta’sirini tahlil etish” Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g‘oya va yechimlar. VIII Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to‘plami.1 jild, 8-son (sentyabr, 2025-yil). samarqand_viloyati_turizm_sohasining_barqaror_iqti.pdf

¹²³ Ergasheva Durdonaxon Aziz Qizi “Turizm sohasini rivojlantirishning ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati va unda innovatsion faollikni oshirish xususiyatlari” nomli maqolasida «Экономика и бизнес» 2024 <https://cyberleninka.ru/article/n/turizm-sohasini-rivojlantirishning-ijtimoiy-iqtisodiy-mohiyati-va-unda-innovatsion-faollikni-oshirish-xususiyatlari>

imkoniyatiga ega. Shu sababli, turizm infratuzilmasini modernizatsiya qilish, boshqaruv mexanizmlarini yangilash va xizmatlar sifatini oshirish strategik ahamiyat kasb etadi. Bunday yangilanishlar yangi ish o‘rinlari yaratish, xorijiy valyuta tushumlarini ko‘paytirish, madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish hamda tabiiy resurslardan samarali foydalanish jarayonlarini jadallashtiradi.

2019–2025-yillarda O‘zbekiston Respublikasida turizm sohasini rivojlantirish konsepsiyasida belgilangan ustuvor yo‘nalishlarni bosqichma-bosqich amalga oshirish natijasida turizm tarmog‘i iqtisodiyotni diversifikatsiyalashning muhim omiliga, hududlar rivojlanishini jadallashtirish vositasiga va mamlakatning investitsion jozibadorligini kuchaytiruvchi strategik sektor darajasiga ko‘tarilmoqda. Mazkur jarayonlar aholining daromadlari va turmush farovonligini oshirishga qaratilgan kompleks islohotlar bilan uyg‘un ravishda olib borilmoqda.

Qiziltepa tumani tabiiy, madaniy, tarixiy va qishloq turizmini rivojlantirish uchun qulay hudud hisoblanadi. Tuman hududida mavjud bo‘lgan sahro ekotizimi, dasht relyefi va maxsus flora-fauna turlari ekologik va etnoturizm uchun alohida imkoniyat yaratadi. Xususan, Qiziltepa dashtlari, cho‘l hududlarida rivojlanishi mumkin bo‘lgan ekoturizm loyihalari (quad-bike turlari, qo‘riqlangan tabiat zonalari bo‘ylab safari marshrutlari, qushlarni kuzatish maydonlari) turistlar uchun jozibador yo‘nalishlar bo‘lishi mumkin. Hududning iqlim sharoiti yilning ko‘p qismini ochiq osmon ostidagi turizm faoliyatlariga moslashtiradi.

Tuman aholisi tomonidan asrlar davomida shakllangan an‘anaviy hunarmandchilik, milliy taomlar, etnik marosimlar va folklor namunalari milliy turizm uchun muhim resurs hisoblanadi. Ayniqsa, Qiziltepa tumani xalqining chorvachilikka asoslangan turmush tarzi, milliy qo‘y-qo‘zi yetishtirish an‘analari, qo‘y go‘shidan tayyorlanadigan milliy taomlar gastronomik turizm yo‘nalishlari uchun muhim omillardir. Bundan tashqari, tuman hududida mavjud bo‘lgan arxeologik qoldiqlar, qadimiy manzilgohlar va tarixiy yodgorliklar ilmiy-tadqiqot turizmini rivojlantirishga xizmat qilishi mumkin.

Transport infratuzilmasining rivoji, yo‘l tarmoqlarining kengayishi, Navoiy shahri va boshqa yirik markazlarga yaqinligi Qiziltepani tranzit turizm uchun ham istiqbolli hududga aylantiradi. Biroq turizm obyektlarining yetarli darajada tashkil etilmagani, zamonaviy mehmonxonalar, servis markazlari, yo‘lbo‘y infratuzilmasi kabi elementlarning kamligi turistlar oqimining barqaror shakllanishida to‘siq bo‘lmoqda. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, Qiziltepa tumanida mavjud bo‘lgan turistik resurslar yetarli bo‘lsa-da, ulardan samarali foydalanish uchun boshqaruv, rejalashtirish, moliyaviy qo‘llab-quvvatlash va marketing bo‘yicha kompleks yondashuv zarur.

“Qiziltepa tumanidagi To‘dako‘l suv havzasi tabiati va dam olish maskanlari mahalliy hamda xorijiy sayyohlarni o‘ziga jalb etib kelmoqda. Turizm sohasiga berilayotgan imtiyozlar hisobiga hududda yangi plyaj turizm zonalari, 2 ta dam olish maskani, 10 ta oilaviy mehmon uylari hamda 15 turdagi turizm xizmatlari tashkil etildi. Bu xorijiy sayyohlar oqimini ikki baravarga oshirdi.”¹²⁴

1-jadval.

Navoiy viloyati aholisi (2025-yil boshiga, ming kishi)¹²⁵

Hudud nomi	Jami aholisi	shu jumladan:	
		shahar aholisi	qishloq aholisi
Navoiy viloyati	1094,7	539,2	555,5
shaharlar			
Navoiy	166,5	166,5	
Zarafshon	90,4	90,4	
G‘ozg‘on	9,3	9,3	
tumanlar			
Karmana	141,8	46,3	95,5
Konimex	37,2	17,0	20,2
Qiziltepa	164,6	51,1	113,5
Navbahor	122,7	17,7	105,0
Nurota	90,8	51,7	39,1
Tomdi	15,3	5,1	10,2
Uchquduq	39,7	34,8	4,9
Xatirchi	216,4	49,3	167,1

2024-yil yakunlari bo‘yicha Navoiy viloyati aholisi 1 094,7 ming kishini tashkil etib, hududning demografik tarkibi shahar va qishloq aholisi o‘rtasida nisbatan muvozanatli taqsimlangan. Jumladan, viloyatning 539,2 ming nafari shahar aholisi, 555,5 ming nafari qishloq aholisi hisoblanadi. Shahar aholisi ulushi 49,3 foiz atrofida bo‘lsa, qishloq aholisi 50,7 foizni tashkil etadi. Bu ko‘rsatkich viloyatda urbanizatsiya jarayoni o‘rtacha sur‘atlarda kechayotganini, ammo qishloq aholisining ustunligi hamon saqlanib qolayotganini bildiradi. Shaharlar kesimida Navoiy shahri 166,5 ming kishi bilan hududdagi eng yirik demografik markaz bo‘lib, viloyat aholisining sezilarli qismini o‘zida jamlaydi. Zarafshon (90,4 ming

¹²⁴ https://uza.uz/oz/posts/prezident-topshirigi-amalda-navoiy-viloyatining-turizm-salohiyati-yanada-yuksaladi_474044


¹²⁵ <https://www.navstat.uz/uz/rasmiy-statistika/services-2#>

kishi) va G‘ozg‘on (9,3 ming kishi) shaharlari esa urbanizatsiya hududlarini kengaytiruvchi muhim punktlar hisoblanadi.

Tumanlar miqyosida aholining hududlar bo‘yicha notekis taqsimlangani kuzatiladi. Masalan, Xatirchi tumani 216,4 ming kishi bilan eng ko‘p aholiga ega tuman hisoblanadi, undan keyingi o‘rinda Qiziltepa (164,6 ming), Karmana (141,8 ming) va Navbahor (122,7 ming) tumanlari turadi. Tomdi tumani esa 15,3 ming kishi bilan viloyatdagi eng kam aholi yashaydigan hududdir. Ushbu farq iqtisodiy faollik, infratuzilma shakllanganlik darajasi va tabiiy-geografik sharoitlar bilan izohlanadi. Shuningdek, Nurota, Konimex va Uchquduq kabi tumanlarda aholi zichligi nisbatan past bo‘lib, bu hududlarning tog‘li yoki cho‘l zonalarida joylashganligi demografik ko‘rsatkichlarga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

Jadval ma’lumotlariga ko‘ra, Qiziltepa tumani aholisi 2024-yil yakuni bo‘yicha 164,6 ming kishini tashkil etadi. Ushbu ko‘rsatkich tumanni Navoiy viloyatidagi aholisi eng ko‘p to‘plangan hududlardan biriga aylantiradi. Tumanda aholi tarkibining shahar va qishloq kesimida farqlanishi sezilarli darajada bo‘lib, 51,1 ming nafar shahar aholisi, 113,5 ming nafar qishloq aholisi istiqomat qiladi. Bu degani Qiziltepa tumanida qishloq aholisi umumiy aholining qariyb 69 foizini, shahar aholisi esa 31 foizini tashkil etadi. Mazkur nisbat tumanda agrar-sektor ustuvorligini, shuningdek, urbanizatsiya jarayoni hali to‘liq shakllanmaganini ko‘rsatadi.

Qishloq aholisi sonining yuqori bo‘lishi tumanda dehqonchilik va chorvachilik faoliyatlarining keng tarqalganini, yer resurslaridan foydalanish nisbatan faol ekanini bildiradi. Shahar aholisi ulushining nisbatan pastligi esa sanoat va xizmat ko‘rsatish sohalari to‘liq diversifikatsiya qilinmaganini anglatadi. Shu bilan birga, Qiziltepa tumanining viloyatdagi demografik salmog‘ining yuqoriligi iqtisodiy, ijtimoiy va infratuzilmaviy xizmatlar ko‘lami kengaytirishni talab etadi. Aholi sonining katta bo‘lishi ta’lim, sog‘liqni saqlash, uy-joy, transport va boshqa xizmatlarga bo‘lgan talabning yuqoriligini ham ifodalaydi. Demografik tarkibdagi bu nisbat kelgusi yillarda tumanda urbanizatsiya jarayonlarini jadallashtirish, qishloq infratuzilmasini modernizatsiya qilish va mehnat bozorini kengaytirish zarurligini taqozo etadi.



1-rasm. Navoiy viloyati va Qiziltepa tumanida qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmi (amaldagi narxlarda, mlrd. so'm)¹²⁶

Navoiy viloyatida qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 2020-2024 yillarda barqaror o'sish tendentsiyasini ko'rsatgan. Ya'ni 2020 yilda 11,309.7 mlrd so'm bo'lsa 2024 yilga kelib 20,063.2 mlrd so'm (eng yuqori ko'rsatkich)ga erishgan. Bu davr mobaynida ishlab chiqarish hajmi deyarli ikki barobarga oshgan. Biroq, 2025 yilda (yan-sen) keskin pasayish kuzatilmoqda - 16,633.7 mlrd so'mgacha, bu mavsumiy omil yoki boshqa tashqi ta'sirlar bilan bog'liq bo'lishi mumkin.

Qiziltepa tumanida ham ijobiy dinamika qayd etilgan, ammo hajm nisbatan past. 2020 yilda 2,162.0 mlrd so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2024 yilda 3,900.7 mlrd so'mga yetgan. 2025 yilda (yan-sen) bu davrda ham pasayish yuz bergan - 3,222.4 mlrd so'mgacha. O'sish sur'ati Navoiy viloyatiga nisbatan sekinroq bo'lsa-da, barqaror rivojlanish davom etmoqda.

Qiziltepa tumani chorvachilik mahsulotlari, xususan sut va sut mahsulotlari ishlab chiqarish bilan shug'ullanadi. Qatiq - an'anaviy milliy sut mahsuloti bo'lib, tumanda kichik va o'rta fermer xo'jaliklari tomonidan ishlab chiqariladi.

Qatiq ishlab chiqarish jarayoni mahalliy sut zahiralariga bog'liq bo'lib, asosan qo'y va sigir sutidan tayyorlanadi. Tumandagi qishloq xo'jaligi ko'rsatkichlarining o'sishi sut mahsulotlari, jumladan qatiq ishlab chiqarish hajmining ham oshganligidan dalolat beradi. Mahalliy bozorlar va chakana savdo tarmoqlari orqali sotilishi tumandagi dehqon xo'jaliklarining daromad manbalaridan biridir.

Xulosa va takliflar.

Qiziltepa tumani turizmni rivojlantirish bo'yicha katta imkoniyatlarga ega bo'lib, mazkur salohiyatni ro'yobga chiqarish uchun tizimli choralar ko'rish talab etiladi. Hududning tabiiy,

¹²⁶ <https://navstat.uz/uz/rasmiy-statistika/agriculture-2>

tarixiy va madaniy resurslari asosida turizm sohasini kengaytirish ekonometrik tahlillar asosida rejalashtirilishi zarur. Quyidagi takliflar tuman turizm salohiyatidan samarali foydalanish imkonini beradi:

Birinchidan, Qiziltepa tumanining turistik resurslari bo'yicha yagona elektron xarita va raqamli ma'lumotlar bazasini yaratish;

Ikkinchidan, ekoturizm va sahro turizmi yo'nalishlarida maxsus marshrutlar, qo'riqlangan ekomaydonlar va ekologik lagerlarni tashkil etish;

Uchinchidan, milliy hunarmandchilik markazlarini rivojlantirish va turistlar uchun amaliy ustaxona (master-klass) dasturlarini joriy etish;

To'rtinchidan, transport, mehmonxona va ovqatlanish xizmatlarini modernizatsiya qilish va zamonaviy servis standartlarini tatbiq etish;

Beshinchidan, Qiziltepa tumani bo'yicha gastronomik festivallar, madaniy tadbirlar va ochiq havoda o'tkaziladigan turistik bayramlarni yo'lga qo'yish;

Oltinchidan, tashqi va ichki turizm bozorida Qiziltepa brendini yaratish va hudud marketingini kuchaytirish;

Yettinchidan, xorijiy investorlarni jalb qilish uchun turizm infratuzilmasi bo'yicha imtiyozlar va grant dasturlarini ishlab chiqish;

Sakkizinchidan, mahalliy aholini turizm xizmatlari ko'rsatish bo'yicha o'qitish, tadbirkorlik ko'nikmalarini rivojlantirish va kichik biznesni qo'llab-quvvatlash.

Mazkur chora-tadbirlar Qiziltepa tumanining turistik salohiyatidan samarali foydalanish, yangi ish o'rinlari yaratish, aholining daromadlarini oshirish hamda hududning iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

[1]. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Respublikaning turizm salohiyatini jadal rivojlantirish hamda mahalliy va xorijiy turistlar sonini yanada oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori, 26.04.2023 yildagi PQ-135-son <https://lex.uz/docs/-6456786?ONDATE=11.09.2025>

[2]. Svitlana Kryshtanovych, Bogdan Kindzer, Marta Goryn, Alla Kravchenko, Svitlana Frunza Management of socio-economic development of tourism enterprises" <https://www.cceol.com/search/article-detail?id=951205>

[3]. Устюгова Е.В., Попова Т.О.Туристский продукт и туристские услуги «Экономика и бизнес»

[4]. Cristina Casals Miralles, Mercè Boy Roura, Sergio Ponsá Salas, Laia Llenas Argelaguet Joan Colón Jordà “Assessing the socio economic impacts of tourism packages: a methodological proposition” <file:///C:/Users/User/Downloads/s11367-024-02284-z.pdf>

[5]. Shukurov Ikrom Abdurashitovich “Samarqand viloyati turizm sohasining barqaror iqtisodiy rivojlanishining aholi farovonligiga ta’sirini tahlil etish”

Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g‘oya va yechimlar. VIII Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to‘plami.1 jild, 8-son (sentyabr, 2025-yil). [samarqand viloyati turizm sohasining barqaror iqtisodiy rivojlanishining iqtisodiy-mohiyati va unda innovatsion faollikni oshirish xususiyatlari](#)

[6]. Ergasheva Durdonaxon Aziz Qizi “Turizm sohasini rivojlantirishning ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati va unda innovatsion faollikni oshirish xususiyatlari” nomli maqolasida «Экономика и бизнес» 2024 <https://cyberleninka.ru/article/n/turizm-sohasini-rivojlantirishning-ijtimoiy-iqtisodiy-mohiyati-va-unda-innovatsion-faollikni-oshirish-xususiyatlari>

[7]. <https://uza.uz/oz/posts/prezident-topshirigi-amalda-navoiy-viloyatining-turizm-salohiyati-yanada-yuksaladi> 474044

[8]. <https://www.navstat.uz/uz/rasmiy-statistika/services-2#>